

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI



«Tasdiqlayman»

M.T.Xodjiyev

08. 2022 yil

«Tibbiyotda xorijiy til» (Ingliz) fanidan o'quv dasturi

Bilim sohasi : 900000 – Sog'likni saqlash va ishtimoiy ta'minot
Ta'lim sohasi: 910000 – Sog'likni saqlash
Ta'lim yo'nalishi: 60910200 – Davolash ishi

| | | | | |
|-------------------------------|------------------------------------|--|------------------------------|---------------------------|
| Fan kodi 1.05 | O'quv yili 2022/2023 | Semestr 3-4 | ECTS - Kreditlar 3 | |
| Fan/modul turi Majburiy | Ta'lim tili o'zbek | | Haftadagi dars soatlari 2 | |
| 1 | Fanning nomi | Auditoriya mashg'ulotlari (soat) | Mustaqil ta'lim (soat) | Jami yuklama (soat) |
| | Tibbiyotda xorijiy til (Ingliz) | 72 | 18 | 90 |

1. Fanning mazmuni

So'nggi dekada davomida dunyo amaliyotida chet tillarini zamonaviy texnologiyalar (e-learning, net-based education, moodle) bilan o'qitish jadal sur'atlar bilan o'smoqda. Tibbiyot va farmatsevtika sohasida ham chet tillarini mukammal egallash ulkan taraqqiyot davrida muhim ahamiyatga ega. Tibbiyotda xorijiy til moduli bo'lajak tibbiyot mutaxassislariga xorijiy til bo'yicha olgan bilimlarini qo'llab, tanlangan mutaxassislik bo'yicha chet tilida nashr etilgan ilmiy maqola va adabiyotlardan olingan ma'lumotlarni tushunib va tahlil qilib o'zida kasbiy mahoratlarini yanada rivojlantirishga imkoniyat yaratadi. Modul maksadi-talabalarga tibbiy atamalarni xorijiy tilda o'rganish yo'li bilan o'z kasbiy mahoratlarini kengaytirib va rivojlantirib, ularning kundalik, ilmiy va kasbga oid sohalarda faoliyat olib borishlari uchun chet tilida kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirish.

1.1 Fanning maqsadi: talabalarga tibbiy atamalarni xorijiy tilda o'rganish yo'li bilan o'z kasbiy mahoratlarini kengaytirib va rivojlantirib, ularning kundalik, ilmiy va kasbga oid sohalarda faoliyat olib borishlari uchun chet tilida kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirish.

1.2 Fanning vazifalari :

- Talabalarning til ko'nikma (listening-tinglash, speaking-gapirish, reading-o'qish, writing-yozish) va malakalarini (language spot-grammatik minimum, vocabulary, pronunciation) o'zlashtirgan holda kasbiy ko'nikma va malakalarga (my job-mening kasbim, patient care-bemor parvarishi, culture project-sohaga oid bilimlar vahakozo) ega bo'lishi;

- Talabalarning mazkur yo'nalishdagi bilimlarini xalqaro standartlarga muvofiq ravishda egallashini ta'minlash;

- Chet tilida tibbiy mavzularda erkin muloqot qilishga o'rgatish;
- tanlangan mutaxassislik bo'yicha ilmiy adabiyotlardan olingan ma'lumotlarni tushuna olish va ular bilan ishlash;
- tibbiy maqolalar yozishni o'rgatishni o'zida mujassamlashtiradi.

**1.3. Fandan o'tiladigan mavzular va ular bo'yicha mashg'ulot turlariga
ajratilgan soatlarning taqsimoti
(3-semestr)**

| № | Fanning bo'limi va mavzusi, ma'ruza mazmuni | Soatlar | | | |
|------------------|--|-----------|---------|-------------------|-----------------|
| | | Jami | Ma'ruza | Amaliy mashg'ulot | Mustaqil ta'lim |
| 1. | Unit 11. Working in a team * p. 98 *Learning the vocabulary connected with the specialization | 12 | | 10 | 2 |
| 2. | Unit 12. Diversity at work * p. 106 * Writing sample articles | 12 | | 8 | 4 |
| 3. | Unit 1. Emergency medicine* p.4 * Writing formal and informal letters | 12 | | 10 | 2 |
| 4. | Unit 2. Accidents* p.12 *Preparing/making presentations | 10 | | 8 | 2 |
| | Total: | 46 | | 36 | 10 |
| 4-semestr | | | | | |
| 1 | Unit 3. Sports medicine* p.20 *Learning the vocabulary connected with the specialization | 12 | | 10 | 2 |
| 2 | Unit 4. Obstetrics* p.28 * Writing sample articles | 12 | | 10 | 2 |
| 3 | Unit 5. Psychiatry* p.36 * Writing formal and informal letters | 10 | | 8 | 2 |
| 4 | Unit 6. Geriatrics 8. p.44 *Preparing/making presentations | 10 | | 8 | 2 |
| | Total: | 44 | | 36 | 8 |
| | Total: | 90 | | 72 | 18 |

Izoh: (*) – belgisi qo'yilgan qatordagi mavzu TMI mavzusi deb hisoblansin.

**2. Mavzular va ko'riladigan asosiy masalalar
“Xorijiy til” kursining mazmuni (kuzgi semestr)**

1. Unit 11. Working in a team-10h.

Vocabulary: Teamwork Writing:

Describing an example of good practice

Reading: Syllabus and Competences of the Foundation Programme

Culture project: Finding about politeness in different countries 1(98)

2. Unit 12. Diversity at work -8h.

Language spot: Reported Speech Speaking 2:
Reporting and clarifying Pronunciation: Saying
long sentences Speaking 3: Diversity committee
Reading: Reading bank.12. Maori 1(61-106)

3. Unit 1. Emergency medicine-10h

Language spot: Rapid tense change Speaking: Signs
and symptoms Culture project: Preventing injuries.
1(4)

4. Unit 2. Accidents-8h

Vocabulary: Fractures

Listening 1: Understanding verb tenses. 2(12)

“Xorijiy til” kursining mazmuni (bahorgi semestr)

1 . Unit 3. Sports medicine-10h Listening 1:

Spot the difference Vocabulary: Verbs of
movement. 2(20)

2. Unit 4. Obstetrics-10h Speaking: Establishing
rapport Vocabulary: Technical terms Culture
project: Childbirth. 2(28)

3. Unit 5. Psychiatry-8h

Signs and symptoms: Psychiatric symptom

Listening 1: Mental state examination Patient care:
Interpretation of the patient. 2(.36)

4. Unit 6. Geriatrics 8. -8h

Listening 1: Picking up the thread of what is being
said Signs and symptoms: Parkinson's and
Alzheimer's. 2(44)

3. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

| № | Mavzular va topshiriqlar mazmuni | Ajratilgan vaqt (soat) | Informatsion-uslubiy ta'minot | Bajarilish Muddati |
|---------------------|---|------------------------|-------------------------------|--------------------|
| (3-semestr). | | | | |
| 1 | Learning the vocabulary connected with the specialization | 2 | 2(3-120) | 3- hafta |
| 2 | Writing sample articles | 4 | 3(5-100) | 6- hafta |
| 3 | Writing formal and informal letters | 2 | 4(3-150) | 8- hafta |
| 4 | Preparation of presentation materials | 2 | 6(3-130) | 10- hafta |
| | Jami | 10 | | |
| (4-semestr). | | | | |
| 1 | Learning the vocabulary connected with the specialization | 2 | 2(3-120) | 2- hafta |
| 2 | Writing sample articles | 2 | 3(5-100) | 4- hafta |
| 3 | Writing formal and informal letters | 2 | 4(3-150) | 7- hafta |
| 4 | Preparing/making presentations | 2 | 6(3-130) | 9- hafta |
| | Jami | 8 | | |

Izox: Mavzuga oid mustaqil ish topshiriqlari bajarish bo'yicha ko'rsatmalar O'UM da keltirilgan.

4. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetentsiyalar):

Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:

Ushbu kursni bitirgach talabalar quyidagi ko'nikmalarga ega bo'ladilar:

- mutaxassislikka oid matnlarni o'qish, mazmunini tushunish va ona tiliga tarjima qilish;
- kundalik, sohaga oid mavzularda og'zaki monologik dialogic nutkga ega bo'lish;
- tilning grammatik va leksik materialini sohada, kundalik hamda ijtimoiy vaziyatlarda to'g'ri qo'llash;
- rasmiy - norasmiy xat, e-mail, hisobot, taklif va tavsiyalar yoza olish;
- o'rganilayotgan asosiy chet tilini UmumEvropa standartlariga ko'ra B2 darajada o'zlashtirish;
- og'zaki va yozma nutq, amaliyoti bo'yicha tasavvur va malakasiga ega bo'lish.
- o'rganilayotgan chet tilida o'qish, tinglab tushunish, gapirish va yozish bilimiga ega bo'lish;

Ta'lim texnologiyalari va metodlari:

- interfaol keys-stadilar;
- seminarlar (mantiqiy fiklash, tezkor savol-javoblar);
- guruhlarda ishlash;
- taqdimotlarni qilish;
- individual loyihalar;
- jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar

5. Talabaning kreditlarni to'plash tartibi

Talabala joriy, oraliq nazorat uchun berilgan vazifa va topshiriqlarni o'z vaqtida bajarishi, Yakuniynazoratni muvafaqiyatli topshirishi lozim. To'plangan reyting ballari asosida talabaning bahosi aniqlanadi.

«Xorijiy til» fanidan baholash mezonlari

1. **Oraliq nazoratlar** yozma test yoki 4 ta ko'nikma (o'qish, yozish, tinglab tushunish va gapirish) tarzida o'tkaziladi. Unda 25 ta test har bir test savol 0,2 ballgacha yoki 4 ta ko'nikma bo'yicha variantlarini to'la bajargan talabaga maksimal 5 ball (o'qish 1, yozish 1,5, tinglab tushunish 1 va gapirish 1,5) beriladi.
2. **TMI:** Sohaga oid lug'atlar yodlash. Amaliy ish daftariga sohasiga oid lug'atlarni yozish va yodlab aytib berish (5 ball):
 - Topshiriq to'liq bajarilgan, so'zlarni fonetik jihatdan to'g'ri talaffuz qila olsa, yodlangan so'zlar asosida gaplar tuza olsa va ularni nutq jarayonida to'g'ri qo'llay olsa – 5 ball
 - Topshiriq to'liq bajarilgan, so'zlarni fonetik jihatdan to'g'ri talaffuz qila olsa, yodlangan so'zlar asosida gaplar tuza olsa va ularni nutq jarayonida to'g'ri qo'llay olmasa – 4 ball
 - Topshiriq to'liq bajarilgan, so'zlarni fonetik jihatdan to'g'ri talaffuz qila olmasa, yodlangan so'zlar asosida gaplar tuzishda va ularni nutq jarayonida to'g'ri qo'llay olmasa – 3 ball beriladi.
3. **TMI:** "Og'zaki matnlar ustida ishlash. Sohasiga oid mavzularni amaliy ish daftariga konspekt qilib kelish va qisqacha mazmunini so'zlab berish (5 ball):
 - Topshiriq to'liq bajarilgan, matnning asosiy mazmunini so'zlab bersa, gaplarni grammatik jihatdan to'g'ri tuza olsa, so'z boyligidan unumli foydalana olsa – 5 ball
 - Topshiriq mohiyati ochilgan, matnning asosiy mazmunini so'zlab bersa, gaplarni grammatik jihatdan to'g'ri tuza olsa, so'z boyligidan unumli foydalana olsa – 4 ball
 - Topshiriq mohiyati yoritilgan, matnning asosiy mazmunini so'zlab berishda va gaplarni grammatik jihatdan to'g'ri tuzishda hamda soz boyligidan unumli foydalana olmay juz'iy kamchilikka yo'l qo'ysa – 3 ball beriladi.
4. **TMI:** Rasmiy va norasmiy xatlar yozish. Amaliy ish daftariga individual tarzda shaxs yoki kasb bilan bog'liq bo'lgan mavzularda tabriknomalar va taklifnomalar; Shaxsiy ma'lumotnomalar, anketa savollari; sodda xatlar, eslatmalar, qaydlar; e-mail, internet forumlariga xatlar yozish. (5 ball):
 - Topshiriq to'liq bajarilgan, lug'aviy amaliyot, yozish amaliyoti orasidagi farqni tushunsa, hamda belgilangan formatda yozilgan bo'lsa -5 ball
 - Topshiriq mohiyati ochilgan, lug'aviy amaliyot, yozish amaliyoti orasidagi farqni tushunsa, hamda belgilangan formatda yozilgan bo'lsa -4 ball
 - Topshiriq mohiyati yoritilgan, lug'aviy amaliyot, yozish amaliyoti orasidagi farqni tushunsa, lekin belgilangan formatda yozishda juz'iy kamchiligi bo'lsa – 3 ball beriladi.

5. **TMI:** Taqdimot materiallarini tayyorlash. Individual tarzda shaxs yoki kasb bilan bog'liq bo'lgan mavzularda 5 daqiqalik prezentatsiya tayyorlash. (5 ball):
- Topshiriq to'liq bajarilgan, ya'ni ish mazmunining mavzuga mosligi, estetik jihatdan qo'yilgan talablarga mos kelib belgilangan muddatda taqdim etilgan bo'lsa -5 ball
 - Topshiriq mohiyati ochilgan, ya'ni ish mazmunining mavzuga mosligi, estetik jihatdan qo'yilgan talablarga mos kelib belgilangan muddatda taqdim etilgan bo'lsa -4 ball
 - Topshiriq mohiyati yoritilgan, ya'ni ish mazmunining mavzuga mosligi, estetik jihatdan qo'yilgan talablarga mos kelib belgilangan muddatda taqdim etilmagan bo'lsa -3 ball
6. **TMI:** Kichik hajmdagi maqollalar tayyorlash. Yozma ishda plagiatga (ko'chirmakashlikka) yo'l qo'ymagan holda 200 so'zdan iborat qisqa insho (annotatsiya) yozish. (5 ball):
- Topshiriq to'liq bajarilgan, topshiriq bo'yicha asosli xulosa chiqarilgan bo'lsa – 5 ball
 - Topshiriq mohiyati ochilgan, natijalar tug'ri, xulosasi bor – 4 ball
 - Topshiriq mohiyati yoritilgan, natijalar asoslanmagan, juz'iy kamchiligi bo'lsa – 3 ball beriladi.
7. **Yakuniy nazorat** 4 ta ko'nikma (o'qish, yozish, tinglab tushunish va gapirish) tarzida o'tkaziladi. Unda 4 ta ko'nikma bo'yicha variantlarini to'liq bajargan talabaga maksimal 5 ball (o'qish 1, yozish 1,5, tinglab tushunish 1 va gapirish 1,5) beriladi.

Eslatma: Talabaning umumiy bali hisoblanganda yaxlitlab olinadi.

| Baho | Baholash mezonlari | To'plangan ball |
|------------|--|-----------------|
| A'lo | Etarli nazariy bilimga ega. Topshiriqlarni mustaqil echgan. Berilgan savollarga to'liq javob beradi. Masalaning mohiyatiga to'liq tushunadi. Auditoriyada faol. O'quv tartib intizomiga to'liq rioya qiladi. Topshiriqlarni namunali rasmiylashtirgan. | 90-100 |
| Yaxshi | Etarli nazariy bilimga ega. Topshiriqlarni echgan. Berilgan savollarga etarli javob beradi. Masalaning mohiyatini tushunadi. O'quv tartib intizomiga to'liq rioya qiladi. | 70-89 |
| Qoniqarli | Topshiriqlarni echishga harakat qiladi. Berilgan savollarga javob berishga harakat qiladi. Masalaning mohiyatini chala tushungan. O'quv tartib intizomiga rioya qiladi. | 60-69 |
| Qoniqarsiz | Talaba amaliy mashg'ulot darsi mavzusiga nazariy tayyorlanib kelmasa, mavzu bo'yicha masala, misol va savollariga javob bera olmasa, darsga sust qatnashsa bilim darajasi qoniqarsiz baholanadi | 0-59 |

Asosiy va qo'shimcha adabiyotlar:

| № | Asosiy adabiyotlar: | Kutubxonada mavjud soni |
|---|--|-------------------------|
| 1 | Medicine1.Oxford English for Careers.SamMcCarter. Oxford University Press. 2019 | |
| 2 | Medicine2. Oxford English for Careers. Sam McCarter. Oxford University Press. 2019 | |
| 3 | Maslova A.M. Uchebnik angliyskogo yazi'ka dlya meditsinskix vuzov. Moskva, 2018 g. | |

Qo'shimcha adabiyotlar:

| | | |
|---|--|--|
| 1 | Medical English Clear and Simple. F.F. Davis company, 2016. | |
| 2 | English in Medicine. EricH.Glendingning, 2016. | |
| 3 | Professional English in Use. Medicine. EricH. Glendingning, Cambridge, 2016. | |
| 4 | Straight Forward. Oxford University,2011. | |
| 5 | Even More True Stories. Sandra Heyer.Oxford.2011. | |
| 6 | New Inside Out. McMillan,2014 | |

Axborot manbalari:

1. www.patient.co.uk
2. respite for the carer: www.carers.org
3. the website for Age Concern
4. the website for the Alzheimer's Disease Society
5. the website of British Council: <http://www.britishcouncil.com>
6. The website for English teachers: <http://www.onestopenglish.com>
7. The website for teaching material in English: <http://www.macmillanenglish.com>
8. The website for English language course books
<http://www.oup.com/elt.com>
9. Teaching English CLIL
<http://www.teachingenglish.org.uk.train>
10. Web site for English Teachers of Uzbekistan. <http://www.uztea.uz>
11. www.tma.uz
12. www.ziyonet.uz
13. www.medlincs.ru
14. www.medbook.ru

O'quv dasturi Guliston davlat universiteti tomonidan ishlab chiqildi.

Tuzuvchi: Qodirova L.M.- katta o'qituvchi

Taqrizchi: Tojiyev X. - "Ingliz tili va adabiyoti" kafedrasida dotsenti, filologiya fanlari nomzodi.
O'quv dasturi Guliston davlat universiteti Kengashi tomonidan (2022 yil 31 avgustdagi 1-sonli bayonnoma) maqullangan.

Xorijiy til (nemis) fanining o'quv dasturi GulDU O'quv-metodik kengashining 29.08.2022 yil 1-sonli majlisida muxokama etildi va Universitet Kengashiga tavsiya qilindi.